

**Mavzu: Aholini ijtimoiy
himoyalashva ijtimoiy ta`minot
sohasining o`rni va ahamiyati**

Ijtimoiy ta'minot

REJA:

- 1. Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy asoslari
- 2. Ijtimoiy ta'minot xarajatlari
- 3. Uning iqtisodiy manbalari



Ijtimoiy himoya davlatimizning ichki siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qilib belgilangan. Chunki bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borar ekanmiz, aholini kam ta'minlangan, muhtoj qatlamini ijtimoiy larzalardan ishonchli tarzda himoyalash va kafolatlash zarur. Aholini davlat himoyasiga muhtoj bo'lgan qatlami ko'p bolali oilalarni, qariyalar, nogironlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlarning ahvoli, bozor munosabatlarga o'tish davrida narx-navoning oshishi, pulning qadrsizlanishi bilan tirikchiligi qiyinlashib qoladi.

**KUCHLI IJTIMOYIY SIYOSAT BEVOSITA AHOLINING
TURMUSH DARAJASINI, UNING FARAVONLIGINI
OSHIRISHNING ASOSIY OMILI BO`LIB HISOBLANADI VA U
QUYIDAGI YO`NALISHLARNI O`Z ICHIGA OLADI:**

- 1. Daromad siyosati
- 2. Ijtimoiy ta`minot va ijtimoiy kafolatlar
- 3. Aholini ish bilan ta`minlash
- 4. Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish va ular sifatini yaxshilash



Davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilangan:

- Yoshga doir pensiya
- Nogironlik pensiyasi
- Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi



Aholini ijtimoiy himoyalash masalalari ijtimoiy ta'minot organlari bilan birga:

Mehnat;

Moliya;

Sog'liqni saqlash, Aloqa vazirliklari;

Pensiya jamg'armasi;

Ko'zi ojizlar, Kar-soqovlar, Nogironlar, Qizil Yarimoy jamiyatlari;

«Mehribonlik», «Bolalar», «Navro'z», «Sog'lom avlod uchun» kabi xayriya jamg'armalari tashkil etilgan.



Ijtimoiy ta'minot quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllarda amalga oshiriladi:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi
- respublika byudjeti mablag'lari
- mahalliy byudjetlar mablag'lari



Aholini ijtimoiy muhofazalashni bir vaqtning o'zida amal qiladigan va bir-birini to'ldiruvchi quyidagi to'rtta tizimga ajratish mumkin:

- davlat ijtimoiy ta'minoti;
- davlat ijtimoiy sug'urtasi;
- jamoa ijtimoiy sug'urtasi;
- shaxsiy sug'urta;



FINANS SUG'URTA



IShONCh

МЕЖАМБУСКАЯ СТРАХОВАЯ КОМПАНИЯ



KAPITAL SUG'URTA

страховая компания



Davlat ijtimoiy ta'minoti



Aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga pulli nafaqalar vositasida ko'rsatiladigan yordamdir. Soliqlar va boshqa budjet tushumlari hisobiga moliyalanadigan bu yordam ularga belgilangan minimal turmush darajasini kafolatlaydi. Nafaqa huquqiy kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sug'urtasi manbalari, davlat Budjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, muntazam ravishda yoki bir marta ko'rsatadigan ijtimoiy yordamdan iborat bo'lib, pensiyalardan farq qiladi va odatda, yordam xususiyatiga ega bo'ladi hamda fuqaro turmush kechirishining asosiy manbayi bo'lib hisoblanmaydi.

Davlat ijtimoiy ta'minotining quyidagi turlari mavjud:

1

- davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va boshqa ijtimoiy nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minoti;

2

- nogironlarni protez-ortopedik buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash;

3

- nogironlarni ishlab chiqarish, aholini sanatoriya-kurortlar va dori-darmonlar bilan ta'minlash;

Davlat budjetining ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlari davlat tomonidan ijtimoiy funksiyasining bajarilishi bilan bog'liq bo'lib bu xarajatlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- maorif;
- madaniyat, san'at va kinematografiya;
- ommaviy axborot vositalari;
- sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya;
- ijtimoiy siyosat.



Samarqandda nogironlarga muruvvat ko'rsatildi: ularga uy-joy va sovg'a-salomlar topshirildi

- Xalq qabulxonalariga murojaat qilgan 16 nafar fuqaroga «Mahalla» xayriya jamg'armasi viloyat bo'limi tomonidan 2 sotixli uy-joylar qurilishi uchun boshlang'ich to'lovlar o'tkazib berildi. 10 avgust kuni viloyat bo'ylab bo'lib o'tgan tadbirlarda 37 nafar fuqarolarga uylar tantanali ravishda topshirildi.
- Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i A.Jo'rayevning Kun.uzga ma'lum qilishicha, Samarqand shahridagi «Mo'jiza» restoranida bo'lib o'tgan yakuniy tadbirda 206 nafar fuqaroga (shundan 40 tasi voyaga yetmagan bolalarga) nogironlik aravachasi, 40 nafar fuqaroga eshitish moslamalari va 250 nafar fuqaroga quliyat yoqlar va hasa topshirildi.





Ta'lim-tarbiya sohasi



Har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 % tashkil etmoqda. 2017-yilda bu sohada 384 ta obyektning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha qiymati 423 milliard so'mlik ishlar amalga oshirildi, namunaviy loyihalar asosida 29 ta yangi umumta'lim maktabi barpo etildi, 219 ta maktab rekonstruksiya qilinib, 136 tasi kapital ta'mirlandi. 2017-yilda 141 ta tibbiyot muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash uchun qariyb 500 milliard so'm mablag' sarflandi.

Новые возможности
Новые горизонты
Новые идеи





Ko'rsatkichlar



O'tgan yili 215 mingdan ziyod muhtaram faxriylarimiz bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ehtiyojmand nogironlarga 11 mingdan ortiq yuqori sifatli protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari bepul topshirildi. 70 mingga yaqin keksa avlod vakillari to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va statsionar hamda sanatoriy-kurort muassasalarida o'z sog'lig'ini tikladi. «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan 2 trillion 246 milliard so'm va 225 million dollardan ziyod mablag' sarflandi.

Rejalashtirilayotgan xarajatlar

- **2018 -yilda ijtimoiy sohaga**
Davlat byudjeti jami xarajatlarining 59,1 foizi yoki o'tgan yilga nisbatan ko'proq mablag' ajratiladi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga davlat byudjeti xarajatlarining 33,7 foizi, sog'liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo'naltiriladi. Ta'lim-tarbiya sohasini ta'minlash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o'tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog'liqni saqlash tizimida 16 foizga ko'payadi.





E'tiboringiz uchun rahmat!!!

